

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Almatova Madina Ma'murjon qizi**

**Toshkent viloyati Parkent tumani 1-  
son DMTT direktori**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat va atrof muhitga, tirik jonzotlarga bo'lgan ijobiy yondoshuvlar hamda mehr shavqat hissini rivojlantirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* atrof-olam, bola, tabiat, ekologik madaniyat, munosabat, ta'lim-tarbiya, hayvonot olami.

Bugungi kunda insoniyatni xavfga solayotgan muammolardan biri yer kurrasidagi ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda.

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Maktabgacha yosh ekologik madaniyatni shakllantirishda eng ma'qul davr hisoblanadi. Bu yoshda bolaning dunyoqarashi va ongi, odob-axloq me'yorlari rivojlanayotgan bo'ladi. Bu yoshda inson, bola go'zallikka, jonli va jonsiz tabiat bilan hamohang bo'lishga, jamoaviy va do'stona munosabatlarga tayyorlik, ruhiy yuksalish va o'zini anglashga, olamni chegaralarsiz qabul qilishga, yuksak axloqiy sifatlarga intiladi. Bola o'zgalarning qayg'usini his qiladi, o'zning va boshqalarning adolatsizligini og'ir qabul qiladilar, kattalarning yaxshi ishlariga va sifatlariga taqlid qiladilar. Bolaning beg'ubor qalbi moddiy va ruhiy olamni o'zida birlashtiradi. Mana shu birlashuvsiz bolada ekologik dunyoqarash va ongni shakllantirish imkonsiz.

Zaminimizdagi tabiiy manbalarni asrab-avaylashning eng muhim vositalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarak-atrofdagi muhitni yaxshilash, uning buzilishi, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatga nisbatan axloqiy qiymatdagi xatti-harakatlarni amalga oshirish malaka va ko'nikmalari esa bolalikdan rivojlan-tirilsagina maqsadga erishish mumkin. Ayni maqsadlar insonning butun hayoti davomida mafkura, siyosat, san'at, adabiyot, ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish amaliyoti, ta'lim-tarbiya, tashviqot orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu ishlarning dastlabki shakllari maktabgacha ta'lim yoshidan boshlanishi zarur. Bolaning maktabgacha ta'lim yoshi davrida tevarak-atrofdagi borlikka nisbatan ongli ravishda tabiatga ijobiy munosabati tarkib topa boshlaydi va u ona tabiatga bo'lgan g'amxo'rlikni orttira boradi.

Bolalardagi atrof-muhitga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ularni tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash kerakligini esdan chiqarmaslik kerak. Ekologik tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash, tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishlarida katta yordam beradi.

Ekologik ta'lim-tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida bebaho insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi: tabiatning barcha ob'ektlariga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o'rganish, unga g'amxo'rlik qilish malakalarini rivojlantiradi.

Tabiatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, xuddi mana shu yoshda bolada ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevorlari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi - maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.